

ANTIMONOPOL ORGANLARNING TASHKILY-HUQUQIY EVOLYUTSIYASI: MA'MURIY QARORLARNING TADBIRKORLIK MUHITIGA TA'SIRI VA BOZOR MEXANIZMLARI ORQALI ADOLATLI RAQOBATNING SHAKLLANISHI

Maxsuda Tadjibayeva

TDYU Tadbirkorlik huquqi va korporativ huquq sho'basi
katta o'q'ituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida insofsiz raqobatga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilikning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan 1992 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr besh bosqichga bo'lib o'rganilgan bo'lib, har bir bosqichda antimonopol vakolatli organning tashkiliy-huquqiy maqomi, vazifalari va vakolatlari qanday o'zgarib borgan, shuningdek ma'muriy qarorlar va islohotlarning tadbirkorlik muhitiga hamda raqobat munosabatlariga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: insofsiz raqobat, raqobat qonunchiligi, antimonopol organ, ma'muriy islohot, tadbirkorlik muhiti, adolatli (halol) raqobat, bozor mexanizmlari, monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi.

Jahon iqtisodiyotida raqobat munosabatlarining barqaror rivojlanishi, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi adolatli (halol) raqobat muhitini ta'minlash zamonaviy huquq tizimlarining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Insofsiz raqobat — nafaqat alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatlariga, balki butun bozor mexanizmining samarali faoliyat yuritishiga, iste'molchilar huquqlarining himoyalashiga va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ham jiddiy tahdid soladigan huquqbuzarlik turlaridan biridir. Shu sababli, insofsiz raqobatga qarshi kurashish borasidagi milliy qonunchilikning shakllanish tarixini, uning rivojlanish bosqichlarini hamda bu jarayonda davlat organlarining tashkiliy-huquqiy o'zgarishlari va ma'muriy qarorlarining tadbirkorlik muhitiga ta'sirini o'rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillaridan buyon O'zbekiston Respublikasida raqobat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bir necha marta tubdan o'zgarishlarga uchradi, antimonopol vakolatli organning tashkiliy-huquqiy maqomi va vazifalari qayta-qayta qayta ko'rib chiqildi. Bu o'zgarishlar, bir tomondan, davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat siyosatini takomillashtirishga bo'lgan intilishini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, amaldagi qonunchilikning insofsiz raqobat va insofsiz savdo amaliyoti shakllarini to'liq va aniq tartibga sola olmayotganligini ham ko'rsatadi. Shu bois, ushbu maqolada milliy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalarini bosqichma-bosqich tahlil qilish, davlat organlarining ma'muriy qarorlari tadbirkorlik muhitiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash hamda bozor mexanizmlari orqali adolatli raqobatning shakllanishi va cheklanishi masalalarini yoritish maqsad qilib olindi.

Insofsiz raqobatga qarshi kurashishda milliy qonunchilikning roli va uning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish ilmiy- amaliy jihatidan istiqbolli yo'nalishlardan bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda insofsiz raqobat munosabatlarini tartibga soluvchi yagona Qonun sifatida 2012 yil 14 noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida tovarlarning sifatini oshirish, ularning narxini pasaytirish obyektiv jarayon sifatida baholanadi. Lekin, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu qonun raqobatga oid munosabatlar sohasini samarali tartibga sola olmaydi. Xususan, unda insofsiz savdo amaliyoti "insofsiz raqobat" toifasida tartibga solinadi va insofsiz savdo amaliyotini ta'riflaydigan aniq normlar mavjud emas.[1]. Insofsiz savdo amaliyoti va Insofsiz raqobatga qarshi kurashishning zarur strategiyasini ishlab chiqish uchun O'zbekistonda raqobat qonunchiligi qanday rivojlanganligini hisobga olish va kelajakdagi

holatlarni to'g'ri bashorat qilish lozim. Shu jihatdan O'zbekistonda raqobatga oid qonun hujjatlarining rivojlanishini bir necha bosqichlarga bo'lib tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Rivojlanishning birinchi bosqichi, shubhasiz, 1992 yil 2 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida" gi qonun[2] ning qabul qilinishi bilan boshlanadi. Ushbu qonun 1991 yil 22 martdagi Rossiya Federatsiyasining "Tovar bozorlarida raqobat va monopoliya faoliyatini cheklash to'g'risida" gi qonunidagi insofsiz raqobat shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. Bundan tashqari raqobatga oid juda tor munosabatlarni tartibga solishiga qaramay unda insofsiz raqobat masalalari "g'irrom raqobat" tushunchasi ostida mujassamlashgan edi. Unga ko'ra, g'irrom raqobat, shu jumladan: xo'jalik yurituvchi boshqa sub'ektning mol-mulki va tadbirkorlik nufuziga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar tarqatishga; tovar belgisidan, tovarning firma nomidan yoki markasidan o'zboshimchalik bilan foydalanish, shuningdek xo'jalik yurituvchi boshqa sub'ekt tovarlarining shaklini, idishini, tashqi bezagini aynan ko'chirib olishga; ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, savdo va boshqa sohaga oid maxfiy axborotni egasining roziligisiz olish, undan foydalanish va uni oshkor qilishga; tovarlarning xususiyati, ularni tayyorlash usuli va o'rni, iste'mol xossalari va sifati xususida iste'molchilarni chalg'itishga; xo'jalik yurituvchi boshqa sub'ektlarning bozorga kirishini cheklovchi xatti-harakatlar qilishga yo'l qo'yilmaydi, deyiladi.

Mazkur qonun normasida insofsiz raqobatning insofsiz savdo amaliyoti sifatida baholanadigan faqat ikkita shakli mavjud bo'lgan: birinchidan, raqobatchilarni obro'sizlantiruvchi noto'g'ri ma'lumot tarqatish; ikkinchidan, bozorga kirishni cheklash. Lekin, ikkinchi harakat juda umumiy va O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning boshqa tarkibiy qismlari bilan bir xil bo'lgan.[3]

O'zbekiston Respublikasining "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida" Qonunining amalda ijrosini ta'minlash, o'zaro bog'liq bo'lgan moliyaviy, monopoliyaga qarshi va narx-navo siyosatini olib borish, raqobat muhitini vujudga keltirish va bozor munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 1993 yil 6 fevralda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga monopoliyaga qarshi siyosatni olib borish vazifalari yuklatildi. Shu munosabat bilan Moliya vazirligining Narxlarni belgilash bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining monopoliyaga qarshi va narx siyosatini olib borish Bosh boshqarmasiga

aylantirildi. Bosh boshqarmaning insofsiz raqobatga oid asosiy vazifalaridan bir esa O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona monopoliyaga qarshi va narx siyosatini shakllantirish va olib borish ishlarini muvofiqlashtirish, iste’molchilarni monopolizm va g‘irrom raqobatdan narxlar va tariflarning asossiz o‘shidan ijtimoiy himoya qilishning barqaror negizini yaratish edi. Tizimli tahlillar ko‘rsatishicha, davlat organining bu vakolati bajarilmadi, chunki o‘sha paytda O‘zbekistonda insofsiz raqobat xatti harakatlariga, shuningdek, insofsiz savdo amaliyotiga huquqiy baho berish mexanizmi mavjud emas edi.[4]

Ikkinchi bosqich 1996 yil 27 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi[5] Qonunni qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu Qonunning maqsadi tovar bozorlarida monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilash, raqobat munosabatlarining shakllanishi va samarali amal qilishi uchun sharoitlar ta‘minlashga qaratilgan edi. Ushbu qonun avvalgi qonundan farqli o‘laroq raqobatga oid nisbatan kengroq munosabatlarni tartibga solgan bo‘lib, unda insofsiz raqobat tushunchasiga aniq ta‘rif berilgan edi. Unga ko‘ra “insofsiz raqobat — xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo‘lga kiritishga qaratilgan, qonun hujjatlariga va ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan, ular o‘rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan va amalga oshirilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga tegishli tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta‘sir ko‘rsatish imkonini beradigan harakatlari”, deb bayon etilgan. Biroq, bu ta‘rifda ham amaldagi qonunchilikda mavjud bo‘lmagan, insofsiz raqobatning ikkita komponenti, ya‘ni raqobatni cheklaydigan va korxonalar aylanmasiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan harakatlar mavjud edi. Bu shuni anglatadiki, o‘sha paytda insofsiz raqobatning ta‘rifi insofsiz savdo amaliyoti ta‘rifi bilan bir xil bo‘lgan.[6] Qonunda insofsiz raqobat shakllari ham ko‘proq bo‘lib, endilikda insofsiz raqobatni tartibga solishga oid munosabatlar doirasi ham kengaygan edi. Qonunning 8- moddasira ko‘ra Insofsiz raqobatga, chunonchi: boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektga zarar keltiradigan yoki uning tadbirkorlik obro‘sigacha putur yetkazadigan yolg‘on, noaniq yoki buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni tarqatishga; yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, mahsulotni, xizmatlar bajarishni individuallashtirish vositalaridan noqonuniy foydalanib tovar sotishga; tovarning xususiyati, uni tayyorlash usuli va joyi, iste‘mol xossalari, sifati xususida

iste'molchilarni chalg'itishga; xo'jalik yurituvchi sub'ektning, shu jumladan uning reklama faoliyati jarayonida ham, o'zi ishlab chiqaradigan yoki sotadigan tovarlarni boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tovarlari bilan qo'pol taqqoslashiga; ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish yoki savdo axborotini, shu jumladan tijorat sirini egasining roziligisiz olish, undan foydalanish, uni oshkor etishga; yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektning tovarlar va xizmatlar bozoriga kirishini to'sishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan. Binobarin, bu norma ham insofsiz raqobatning intellektual mulk huquqi va raqobat huquqi bilan bog'liq jihatlari aralashtirilib yuborilgan. Bundan tashqari insofsiz raqobat shakllari batafsil ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, 1998 yilda reklama sohasida insofsiz raqobatdan himoya qilish, xususan, iste'molchilarni chalg'itadigan yolg'on yoki noaniq ma'lumotlar reklama vositasida tarqatilishining oldini olish, insofsiz reklamaning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi.[7] qonuni qabul qilindi. Bu bosqichda 1996 yil 26 maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori asosida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi qaytadan tashkil etildi. Keyinchalik, 2000 yilda Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bo'yicha mustaqil qo'mita yaratildi. 2005 yilda esa Iqtisodiy nochor korxonalarning bankrotligi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi funksiyalarni olish bilan qo'mita qayta tashkil etildi.

Uchinchi bosqich – 2012 yil 6 yanvardagi yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan boshlandi. Qonunda insofsiz raqobatga yangi shakldagi ammo mohiyatan avvalgilaridan keskin farq qilmaydigan ta'rif berildi. Shuningdek, insofsiz raqobat shakllari ham avvalgi qonun hujjatlarida keltirilgan shakllarni aynan takrorlaydi. Ro'yxatga olingan insofsiz raqobat harakatlari, xususan, Insofsiz raqobat bilan bog'liq harakatlar va qisman insofsiz savdo amaliyotini o'z ichiga oladi. Insofsiz savdo amaliyoti sifatida "tovar yoki moliya bozoriga kirishga to'sqinlik qilish" kabi umumiy ma'nodagi shakl saqlanib qolingan.[8] Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning normativ huquqiy hujjatlarida ifodalangan insofsiz raqobat va insofsiz savdo amaliyoti shakllarini amaliyotda ko'plab kuzatish mumkin. Lekin, amaldagi qonunchiligimiz amaliyotda uchrayotgan, aslida insofsiz raqobat hisoblangan barcha muammolarni tartibga solishi imkonsiz. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunida keltirilgan insofsiz raqobat shakllarining intellektual mulk huquqi va raqobat huquqi bilan bog'liq jihatlari ajratilmagan. Bundan tashqari barcha insofsiz raqobat

shakllari batafsil ko'rsatilmagan. Ushbu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, insofsiz raqobatga oid munosabatlarni tartibga solish yangi tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakolati doirasiga ham kiritildi. Xususan, raqobat muhitini rivojlantirish uchun qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va zarur shart-sharoitlarni shakllantirish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlarida, birinchi navbatda ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida insofsiz raqobatga chek qo'yish chora-tadbirlarini amalga oshirish, jamoat tuzilmalari bilan yaqindan muvofiqlashtirilgan holda iste'molchilarning qonuniy manfaatlari va huquqlari himoya qilinishini ta'minlash Davlat raqobat qo'mitasining asosiy vazifasi etib belgilangan edi. Shuningdek, o'z vakolatlari doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni insofsiz raqobatchilardan va davlat organlarining noqonuniy qarorlaridan, mansabdor shaxslarning O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni va boshqa raqobatga oid normativ huquqiy hujjatlarini buzuvchi xatti-harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilishni ta'minlash, reklama sohasida insofsiz raqobatga yo'l qo'ymaslik va noto'g'ri reklamaga barham berish maqsadida reklama bozorini tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rish, davlat organlari bilan birgalikda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga va reklama sohasida insofsiz raqobatning oldini olishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish kabi funksiyalar orqali ham insofsiz raqobatga qarshi kurashishga erishildi.

Rivojlangan mamlakatlar raqobat qonunchiligi tajribasida insofsiz raqobat masalasi alohida institut sifatida rivojlanib kelmoqda. Uning Intellektual mulk huquqi bilan bog'liq jihati insofsiz raqobat sifatida hamda raqobat huquqi bilan bog'liq jihati insofsiz savdo amaliyoti sifatida ajralib chiqqan. O'zbekiston Respublikasi Raqobat qonunchiligida insofsiz savdo amaliyoti insofsiz raqobat harakatiga oid qoidalar bilan tartibga solinadi. Lekin ushbu modda amaliyotda uchrab turadigan savdo munosabatlaridagi insofsiz raqobatni to'la to'kis tartibga sola olmaydi. Aslida insofsiz raqobat belgilariga ega amaliy muammolar qonunchilikda huquqbuzarlik sifatida ko'rsatilmagani uchun ham vakolatli davlat organlari tomonidan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Savdo munosabatlaridagi insofsiz raqobat masalalariga oid nomalarni esa raqobat qonunchiligiga taalluqli bo'lmagan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalaridan qisman topish mumkin. 2003 yildagi O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari

Vazirlar Mahkamasining ilovasi sifatida qabul qilindi va unda insofsiz savdo amaliyoti deb baholanishi mumkin bo'lgan qonunbuzarlikning ayrim shakllari keltirildi. Masalan, narxning asossiz oshishi kabi harakatlar, yetkazib berishdan yoki iste'molchilar bilan muomala qilishdan bosh tortish; tovar belgisi, kelib chiqishi yoki ishlab chiqaruvchining joylashgan joyi to'g'risida ma'lumotsiz mahsulotni sotish kabi.[9] Ammo ushbu huquqiy hujjatni raqobatni tartibga soluvchi hujjat, deb aytib bo'lmaydi. Undagi huquqbuzarliklar ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organi ham Davlat Soliq qo'mitasi sifatida qayd etilgan.

To'rtinchi bosqichda esa 2019 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu qarorni ijro etish yuzasidan "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining qarori qabul qilinishi orqali yangi mustaqil qo'mita Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tashkil etildi. Ammo insofsiz raqobat munosabatlari bo'yicha ushbu tashkilotning vakolatlari avvalgi raqobat qo'mitasining vakolatlaridan farqlanmadi.

Beshinchi bosqichda 2022 yil 21 dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni asosida samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ma'muriy islohotlarni amalga oshirish maqsadida 2023 yildan 1 yanvardan boshlab qayta tashkil etilayotgan 30 ta Respublika davlat organlari safida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi negizida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Bu bosqichda Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi hamda tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining vazifa va funksiyalari Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga o'tkazildi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining vazifa va funksiyalarining qo'mitaga o'tkazilishi ijobiy o'zgarishdir. Xususan, raqobat munosabatlarida iste'molchilar manfaatini himoya qilish masalasi insofsiz raqobatni oldini olish va iqtisodiy tizimning qonuniyligini ta'minlashda zaruriy omil bo'lib, bu orqali turli insofsiz savdo amaliyotlarida iste'molchilar va raqobatni birgalikda himoya qilish, raqobat munosabatlarida iste'molchilar manfaatini ta'minlash va ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qoidalariga zid

qarorlar chiqarilishining oldi olinadi. Raqobatga zid harakatlar sodir etgan shaxsning huquqbuzarligi natijasida zarar ko'rgan iste'molchi alohida boshqaruv organiga murojaat qilmaydi. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining oldida muayyan huquqbuzarlikka barham berish vazifasi ko'ndalang turgan bir paytda iste'molchining va raqobatchining huquqlarini birday himoya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Jahon mamlakatlari tajribasida ham iste'molchilar huquqlarini himoya qilish organi faoliyatini Monopoliyaga qarshi kurashish organi faoliyati bilan birlashtirish orqali ijobiy natijalarga erishilganligi o'z isbotini topgan.

Lekin, bugungi kundagi raqobat qonunchiligiga oid islohotlar zamirida O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan yangi Raqobat to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lsada unda hanuzgacha raqobatga zid harakatlar: ustun mavqeni suiiste'mol qilish, kartel va insofsiz raqobat huquqbuzarliklari orqali iste'molchilar huquqlarining poymol etilishi – insofsiz savdo amaliyotlarini tartibga soladigan maxsus normalar aks etmagan. Insofsiz raqobatni tartibga solishning ikkita eng katta va eng ta'sirli tizimi - Amerika Qo'shma Shtatlarining va Germaniyaning Raqobat qonunchiligi esa korporatsiyalarining xulq-atvorini, tashkil etilishini tartibga soluvchi, raqobatni rivojlantirish va monopoliyalarning oldini olishga qaratilgan qonunchiligi iste'molchilar hamda raqobatchilarning huquqlarini to'liq himoya ostiga olishiga qadar takomillashtirilgan. Germaniyaning 2004 yildagi "Insofsiz raqobatga qarshi" qonuni sud amaliyoti tomonidan tan olingan "Schutzzwecktrias"[10] – "uch tomonlama himoya" deb nomlangan konsepsiyani o'z ichiga oladi. Konsepsiyada iste'molchilarning manfaatlari aniq ko'rsatilgan holda raqobatchilarga, iste'molchilarga yoki bozorning boshqa ishtirokchilariga zarar yetkazadigan darajada raqobatga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan holda, insofsiz raqobat harakatlariga yo'l qo'yilmasligi qonunan mustahkamlangan. Garchi O'zbekistonda raqobat qonunchiligi va siyosatining rivojlanish bosqichlari ulardan tubdan farq qilsa-da erkin va insofsiz raqobat munosabatlari to'liq tartibga solingan ushbu mamlakatlar amaliyotini to'g'ri tadbqiq etish natijasida ijobiy samaraga erishi mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi insofsiz raqobat siyosati va insofsiz raqobatga oid normalari 30 yildan ziyod vaqt mobaynida deyarli jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri esa O'zbekistonda insofsiz raqobatga oid normalar xorijiy mamlakatlar

amaliyoti va bozordagi jiddiy muammolardan kelib chiqqan holda emas, balki huquqiy tartibga solish tartibi va asoslari o'xshash bo'lgan MDH mamlakatlari qonunchiligi bilan muvofiqlashtirish va qonun normalaridan foydalanish natijasida shakllangan. Farqli ravishdagi talab va taklifga ega bo'lgan bozor munosabatlariga mutlaqo boshqa normaning olib joriy etilishi, bozordagi muammolarning o'rganilmasligi, natijalar tadbiq etilmasligi, samara bermasligi aniq. O'zbekistonda insofsiz raqobatga qarshi qonunchiligining kamchiligi sifatida raqobat munosabatlari ishtirokchilari: raqobatchi va iste'molchilarning huquqlarini to'liq kafolatlay olmaydigan darajada shakllantirilganligidir. Pirovardda esa mamlakatimizda ham raqobat qonunchiligi va siyosatining rivojlanish bosqichlari rivojlangan mamlakatlardan tubdan farq qilsa-da ularning amaliyotini to'g'ri tadbiq etish natijasida ijobiy samaraga erishi mumkin bo'ladi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida insofsiz raqobatga qarshi kurashish borasidagi milliy qonunchilik mustaqillik yillari davomida besh bosqichli evolyutsion yo'lni bosib o'tgan: 1992 yildagi "Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida"gi qonundan tortib, 2022–2023 yillardagi keng ko'lamli ma'muriy islohotlar natijasida Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga aylantirilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarning har biri davlat organlarining tashkiliy-huquqiy maqomi, vakolatlari va vazifalarining o'zgarishi bilan birga kechgan bo'lib, bu o'zgarishlar tadbirkorlik muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mamlakatimizda qabul qilingan qonun hujjatlarida insofsiz raqobat tushunchasi va uning shakllari 30 yildan ortiq vaqt mobaynida mohiyatan sezilarli o'zgarishlarga uchramagan, bu esa amaldagi qonunchilikning bozordagi real muammolarni to'liq qamrab ololmasligiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, insofsiz raqobat va insofsiz savdo amaliyoti tushunchalari qonunchilikda aniq farqlanmagan, ularning intellektual mulk huquqi va raqobat huquqi bilan bog'liq jihatlar aralashtirib yuborilgan, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklarga olib kelmoqda.

Uchinchidan, davlat organlarining tashkiliy-ma'muriy qarorlari (xususan, antimonopol organning qayta-qayta qayta tashkil etilishi) bozor mexanizmlari orqali adolatli raqobatning shakllanishiga ham ijobiy, ham cheklovchi ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi — vakolatlarning aniq va barqaror

belgilanmasligi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat organlarining noqonuniy qarorlaridan himoya qilish mexanizmini susaytiradi.

To'rtinchidan, xorijiy mamlakatlar (AQSh, Germaniya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, insofsiz raqobatga qarshi kurashish alohida huquqiy institut sifatida rivojlantirilishi, raqobatchi va iste'molchilarning manfaatlari bir vaqtning o'zida himoya qilinishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: insofsiz raqobat va insofsiz savdo amaliyoti tushunchalarini qonunchilikda aniq farqlash; antimonopol organning vakolatlarini barqaror va aniq belgilash orqali tadbirkorlik muhitiga ma'muriy ta'sirni kamaytirish; xorijiy ilg'or tajribalarni milliy qonunchilikka moslashtirgan holda joriy etish. Bu takliflarning amalga oshirilishi bozor mexanizmlari orqali adolatli raqobatning barqaror shakllanishiga hamda tadbirkorlik muhitining yanada erkinlashtirilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- [1] Shuya Hayashi. Bakhshillo Khodjaev. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law <https://ci.nii.ac.jp/naid/120006877701/>
- [2] Mazkur hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan.
- [3] Shuya Hayashi. Bakhshillo Khodjaev. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law <https://ci.nii.ac.jp/naid/120006877701/>
- [4] O‘sha asar
- [5] Mazkur hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan.
- [6] Shuya Hayashi. Bakhshillo Khodjaev. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law <https://ci.nii.ac.jp/naid/120006877701/>
- [7] Mazkur hujjat o‘z kuchini yo‘qotgan.
- [8] Shuya Hayashi. Bakhshillo Khodjaev. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law <https://ci.nii.ac.jp/naid/120006877701/>
- [9] Shuya Hayashi. Bakhshillo Khodjaev. Regulatory Approach and Specification of Unfair Trade Practices in Uzbekistan: Comparison with Japanese Law <https://ci.nii.ac.jp/naid/120006877701/>
- [10] “Schutzzwecktrias” – “uch tomonlama himoya” raqobatchilarni, iste’molchilarni va jamoatchilikni insofsiz savdo amaliyotidan himoya qilishni nazarda tutuvchi konsepsiya.